# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE’MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO‘MITASI

000370

# B U Y R U Q

Toshkent shahri

2023 yil “ 4 ” oktabr                                   148-ICh -son

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli hamda 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmonlari ijrosini tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son va 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmonlari ijrosini tashkil etish maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha Tashkiliy ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son hamda 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmonlari ijrosini tashkil etish yuzasidan Qo‘mita tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik ochiq ma’lumotlarni joylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2. Jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish bo‘limi (O.Usmonov)** Qo‘mitaning ochiqlikni ta’minlash sohasida faoliyatni muvofiqlashtirib borishga mas’ul tarkibiy bo‘linma etib belgilansin.

**3. Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy organlari rahbarlari:** mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Qo‘mita tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirish bo‘yicha chora-tadbiridagi topshiriqlarga muvofiq tegishli ma’lumotlarni belgilangan muddatlarda umumlashtirishini va yetkazilishini ta’minlasin.

**4. Murojaatlar bilan ishlash, ijro intizomi va natijadorlikni baholash bo‘limi (K.Karabayev)** ochiqlikka oid ma’lumotlarni markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari tomonidan o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berilishini doimiy nazorat qilib borsin.

**5.** Ushbu buyruq ilovasida (ish rejaga muvofiq) ko‘zda tutilgan ma’lumotlarni o‘z vaqtida kiritmagan yoki sifatsiz kiritishga yo‘l qo‘ygan tarkibiy bo‘linma rahbarlari keskin intizomiy jazo choralari ko‘rilishi to‘g‘risida qattiq ogohlantirilsinlar.

**6.** Qo‘mitaning ochiqligi, shaffofligi tizimni takomillashtirish nuqtai nazaridan Qo‘mita tizimidagi barcha xodimlarning shaxsan mas’ulligi belgilab o‘tilsin.

**7. Qo‘mita raisining jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha maslahatchisi O.Usmonov** mazkur buyruqda belgilangan vazifalarni tegishli tarkibiy bo‘linmalar bajarishi yuzasidan rahbariyatga rag‘batlantirish va tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha takliflar kiritib borsin.

**8.** Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan, Qo‘mitaning 19.06.2021-yildagi 84-ICh-sonli va 17.06.2022-yildagi 84-ICh-sonli buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

**9. Devonxona (F.Ikramova)** mazkur buyruqni Qo‘mita markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, hududiy organlariga yuborilishini ta’minlasin.

**10.** Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish rais o‘rinbosarlari A.Qayumov va F.Karabayev zimmasiga yuklatilsin.

**Rais** **Sh. Sharaxmetov**

O‘zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar
huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining
2023-yil 4-oktabrdagi
148-ICh-son buyrug‘iga
1-Ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha Tashkiliy ishchi guruh tarkibi***

| | **Familiyasi va ismi** | **Lavozimi** |
|---|---|---|
| 1. | Qayumov Asadulla Urolovich | Rais o‘rinbosari,<br>Tashkiliy ishchi guruh raisi |
| 2. | Karabayev Farrux Esanaliyevich | Rais o‘rinbosari |
| 3. | Usmonov Otabek Odilbek og‘li | Raisning jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha maslahatchisi |
| 4. | Xakimov Ulug‘bek Abdullayevich | Boshqarma boshlig‘i, a’zo |
| 5. | Botirov Dilmurod Yaqubjonovich | Boshqarma boshlig‘i, a’zo |
| 6. | Shadmankulov Sherzod Ablakulovich | Bo‘lim boshlig‘i, a’zo |
| 7. | Nasirova Dilfuza Xayrullayevna | Bo‘lim boshlig‘i, a’zo |
| 8. | Mamatov Karim Esirgapovich | Bo‘lim boshlig‘i, a’zo |
| 9. | Allayev Lutfillo Alikulovich | Bo‘lim boshlig‘i, a’zo |
| 10. | Karabayev Kozim Baxtiyarovich | Bo‘lim boshlig‘i, a’zo |
| 11. | Xalilov Sardor Shuxratovich | Bo‘lim boshlig‘i, a’zo |

**Izoh: Jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish bo‘limi mas’ul xodimi ishchi guruh kotibi hisoblanadi.*

O‘zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2023-yil 4-oktabrdagi 148-ICh-son buyrug‘iga
2-Ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son hamda 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmonlari ijrosi yuzasidan Qo‘mitaning ijtimoiy ahamiyatga molik ochiq ma’lumotlarni joylashtirish bo‘yicha**

**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son hamda 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmonlari ijrosini ta’minlash maqsadida:<br>ma’lumotlarni o‘z vaqtida joylashni monitoring qilish;<br>ma’lumotlarni o‘z vaqtida data.gov.uz ga joylashtirish;<br>ma’lumotlarni tarkibiy bo‘linmalardan yetkazib berish va nazorat qilish. | Qo‘mita tomonidan:<br>ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar o‘z vaqtida joylashni monitoring qilish; | Ochiq ma’lumotlar portali, Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy | O.Usmonov,<br>S.Xalilov,<br>K.Karabayev |
| | | ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni o‘z vaqtida Ochiq ma’lumotlar portali (data.gov.uz) ga joylashtirish va shaxsan nazorat olib borish; | | | |
| | | Qo‘mitada ochiqlikka oid tashkiliy ishlarni ijro etilishini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash yuzasidan doimiy nazorat olib borish | | | |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 2. | **PF-6247-son, 2-bandi, a-kichik bandi**<br>a) har yili:<br>1-martga qadar o‘z faoliyatiga oid hisobotni (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno) rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, 10-martga qadar uni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida xabar berish.<br>1-aprelga qadar o‘z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlarini o‘tkazish; | 1. Qo‘mita faoliyatiga oid hisobotni shakllantirish va Qo‘mita rasmiy veb-saytiga joylashtirish (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno) | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har yili 1 martga qadar | O.Usmonov, K.Mamatov, markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar |
| | | 2. Yuqoridagi shakllangan hisobot ma’lumotlarini 10 martga qadar uni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish bo‘yicha joyi va vaqti haqida Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti orqali xabar berish. | | Har yili 10 martga qadar | |
| | | 3. Qo‘mita faoliyatiga oid hisobotni shakllangan hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlarini o‘tkazish. | | Har yili 1 aprelga qadar | |
| 3. | **PF-6247-son, 2-bandi, b-kichik bandi:**<br>b) 2021-yil 1-iyuldan boshlab quyidagilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma’lumotlar portaliga (keyingi o‘rinlarda — Portal) va o‘z rasmiy veb- | 1. Qo‘mita tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish | Ochiq ma’lumotlar portali, Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning | A.G‘afforov, L.Allayev, D.Nasirova, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (lavozimiga ko‘ra) |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| | saytlariga joylashtirib, ularni har chorakda yangilab boradi:<br>amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar);<br>mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog‘liq xarajatlar, bundan davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar mustasno);<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bilan soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar, shu jumladan individual imtiyozlar berilgan subyektlarning benefitsiarlari (yakuniy manfaatdor jismoniy shaxslari), ular | 2. Qo‘mita tizimdagi barcha rahbar va xodimlarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog‘liq xarajatlar, bundan davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar mustasno) to‘g‘risida ma’lumotlarni joylashtirish.<br>3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bilan soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar, shu jumladan individual imtiyozlar berilgan subyektlarning benefitsiarlari (yakuniy manfaatdor jismoniy shaxslari), ular tomonidan to‘langan soliqlar va moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bo‘g‘liq masalalar bo‘yicha Qo‘mita tegishliligi bo‘yicha ma’lumotlarni joylashtirish. | | 20-sanasiga qadar | |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| | tomonidan to‘langan soliqlar va moliyaviy ko‘rsatkichlar;<br>o‘zlarining yillik xarajatlar smetasi va uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish xarajatlari; | 4. Qo‘mitaning yillik xarajatlar smetasi va uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish xarajatlari to‘g‘risida ma’lumotlarni joylashtirish. | | | |
| 4. | **PF-6247-son, 2-bandi, v-kichik bandi**<br>O‘z huzurida faoliyat yurituvchi jamoatchilik kengashlari bilan birgalikda rasmiy veb-saytlarida quyidagi ma’lumotlarni joylashtirib, ularning har chorakda yangilanib borilishini ta’minlaydi:<br>jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a’zolari haqidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma’lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari);<br>jamoatchilik kengashining yig‘ilishlari va kun tartibidagi masalalar;<br>davlat xaridlarini amalga oshiruvchi komissiyaning tasdiqlangan a’zolari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, | 1. Qo‘mita tizimi huzurida faoliyat yurituvchi jamoatchilik kengashlarining jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a’zolari haqidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma’lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari) hamda jamoatchilik kengashining yig‘ilishlari va kun tartibidagi masalalari to‘g‘risida ma’lumotlarni joylashtirish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar | O.Usmonov, Sh.Shadmankulov |
| | | 2. Davlat xaridlarini amalga oshiruvchi Qo‘mita komissiyaning tasdiqlangan a’zolari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish. | | | A.G‘afforov |
| | | 3. Qo‘mita tomonidan litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan Qo‘mitaning hududiy boshqarmalari kesimida mas’ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi | | | Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| | ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi);<br>Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan organlarning hududlar kesimida mas’ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a’zolari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi). | hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a’zolari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish. | | | qilish boshqarmasi (lavozimiga ko‘ra) |
| 5. | **PF-6247-son, 1-ilova, 3-bandi.**<br>Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar). | Qo‘mita tomonidan amalga oshirilgan Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni joylashtirish | Ochiq ma’lumotlar portali, Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar | A.G‘afforov, L.Allayev, D.Nasirova markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar |
| 6. | **PF-6247-son, 1-ilova, 4-band.**<br>Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari | Qo‘mitaning mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish | Ochiq ma’lumotlar portali, Qo‘mitaning | Har chorakda hisobot oyidan | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (lavozimiga ko‘ra) |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| | (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog‘liq xarajatlar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno). | xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish. | rasmiy veb-sayti | keyingi oyning 5-sanasiga qadar | L.Allayev, A.G‘afforov, B.Yusupjanov, markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar |
| 7. | **PF-6247-son, 1-ilova, 5-bandi.**<br>Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar (xarid e’lon qilinishidan kamida 6 oy oldin). | Qo‘mita tomonidan davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar kamida 6 oy oldin joylashtirish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar | A.G‘afforov, L.Allayev |
| 8. | **PF-6247-son, 1-ilova, 6-bandi.**<br>Davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo‘yicha tashkil etiladigan xarid komissiyalarining tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan:<br>xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror;<br>xarid komissiyasi a’zolarining ma’lumotlari (familiyasi, ismi va | Qo‘mita tomonidan davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo‘yicha tashkil etiladigan xarid komissiyalarining tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan:<br>xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror;<br>xarid komissiyasi a’zolari to‘g‘risida ma’lumotlari (familiyasi, ismi va | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | A.G‘afforov, Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish boshqarmasi (lavozimiga ko‘ra), markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| | otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi). | otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi) ni joylashtirish. | | | |
| 9. | **PF-6247-son, 1-ilova, 14-bandi.** Tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to‘g‘risidagi va boshqa ma’lumotlar. | Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to‘g‘risidagi va boshqa ma’lumotlarni joylashtirish. | Ochiq ma’lumotlar portali, Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning 20-sanasiga qadar | L.Allayev, A.G‘afforov, D.Nasirova |
| 10. | **PF-6247-son, 1-ilova, 15-bandi.** Davlat organlari va tashkilotlari tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko‘chmas mulklar, qurilishi tugallanmagan obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (tezkor-qidiruv, harbiy va boshqa maxsus xizmatlarda foydalaniladigan ashyolar bundan mustasno). | Qo‘mita va uning boshqarmalari tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko‘chmas mulklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish. | Ochiq ma’lumotlar portali, Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar | A.G‘afforov, L.Allayev, markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar |
| 11. | **PF-6247-son, 1-ilova, 16-bandi.** Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul | Qo‘mita tomonidan litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan organlarning hududlar kesimida | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti, shu jumladan | Har chorakda hisobot oyidan | Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| | qiladigan organlarning hududlar kesimida mas’ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a’zolari (familiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi) to‘g‘risidagi ma’lumotlar. | mas’ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a’zolari (familiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish. | “licence.gov.uz” sayti | keyingi oyning 5-sanasiga qadar | qilish boshqarmasi (lavozimiga ko‘ra) |
| 12. | **PF-6247-son, 1-ilova, 29-bandi.**<br>Davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan:<br>jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a’zolari haqidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma’lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari);<br>jamoatchilik kengashining yig‘ilishlari va kun tartibidagi masalalar. | Qo‘mita huzuridagi jamoatchilik kengashlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan:<br>jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a’zolari haqidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma’lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari);<br>jamoatchilik kengashining yig‘ilishlari va kun tartibidagi masalalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar | O.Usmonov, Sh.Shadmankulov, markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar |
| 13. | **PF-6247-son, 1-ilova, 30-bandi.**<br>Davlat organlari va tashkilotlarining tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejalari (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun | Qo‘mita huzuridagi tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har yarim yillikda | K.Mamatov, K.Karabayev, markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| | mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno). | | | | |
| 14. | **PF-6247-son, 1-ilova, 31-bandi.**<br>Davlat organlariga doimiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mol-mulklarni davlat-xususiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar. | Qo‘mita doimiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mol-mulklarni davlat-xususiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar | A.G‘afforov, |
| 15. | **PF-154-son, 2-ilova, 1-bandi.**<br>Faoliyat sohasiga oid aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan tez-tez beriladigan savollarga javoblar uchun alohida sahifa tashkil etilib, ularga qonunchilik hujjatlari asosida asoslantirilgan va o‘z vaqtida javoblar e’lon qilib borish. | Qo‘mita tomonidan faoliyat sohasiga oid aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan tez-tez beriladigan savollarga javoblar uchun alohida sahifa tashkil etilib, ularga qonunchilik hujjatlari asosida asoslantirilgan va o‘z vaqtida javoblar e’lon qilib borish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | Markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari,<br><br>“Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi” DUK |
| 16. | **PF-154-son, 2-ilova, 2-bandi.**<br>O‘z faoliyatiga taalluqli bo‘lgan (huquqiy maqomini, shu jumladan tarkibiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasi, vazifa va funksiyalarini belgilaydigan) normativ-huquqiy hujjatlar to‘liq e’lon qilish. | Qo‘mita tomonidan o‘z faoliyatiga taalluqli bo‘lgan (huquqiy maqomini, shu jumladan tarkibiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasi, vazifa va funksiyalarini belgilaydigan) normativ-huquqiy hujjatlar to‘liq e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | Sh.Shadmankulov, Inson resurslari rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (lavozimiga ko‘ra) |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 17. | **PF-154-son, 2-ilova, 3-bandi.** Qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarga oid masalalar, davlat xizmatlarini hamda xizmatlarning boshqa turlarini ko‘rsatish tartibi, muddatlari va qiymatini tartibga soluvchi hujjatlar e’lon qilish. | Qo‘mita tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarga oid masalalar, davlat xizmatlarini hamda xizmatlarning boshqa turlarini ko‘rsatish tartibi, muddatlari va qiymatini tartibga soluvchi hujjatlar e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | Sh.Shadmankulov |
| 18. | **PF-154-son, 2-ilova, 4-bandi.** Oldin qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risidagi ma’lumotlar hujjat qabul qilingan kundan boshlab yetti kun muddatda e’lon qilish. | Qo‘mita tomonidan oldin qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risidagi ma’lumotlar hujjat qabul qilingan kundan boshlab yetti kun muddatda e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | Sh.Shadmankulov |
| 19. | **PF-154-son, 2-ilova, 5-bandi.** O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti va Hukumat tomonidan davlat organi va tashkiloti faoliyati sohasida tasdiqlangan dasturlar va ularning ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilish va dasturlarning ijrosi haqidagi ma’lumotlarni bir haftada kamida bir marta yangilanib borish. | Qo‘mita tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti va Hukumat tomonidan davlat organi va tashkiloti faoliyati sohasida tasdiqlangan dasturlar va ularning ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilish va dasturlarning ijrosi haqidagi ma’lumotlarni bir haftada kamida bir marta yangilanib borish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | K.Mamatov |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 20. | **PF-154-son, 2-ilova, 6-bandi.**<br>O‘tkazilgan va o‘tkazilishi rejalashtirilgan ommaviy tadbirlar (majlislar, yig‘ilishlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, seminarlar va brifinglar, davra suhbatlari, rasmiy tashriflar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek, kundalik faoliyat to‘g‘risidagi boshqa axborotlar e’lon qilish. | Qo‘mita tomonidan o‘tkazilgan va o‘tkazilishi rejalashtirilgan ommaviy tadbirlar (majlislar, yig‘ilishlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, seminarlar va brifinglar, davra suhbatlari, rasmiy tashriflar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek, kundalik faoliyat to‘g‘risidagi boshqa axborotlar e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | O.Usmonov |
| 21. | **PF-154-son, 2-ilova, 7-bandi.**<br>Bo‘sh ish o‘rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilish. | Qo‘mita tomonidan bo‘sh ish o‘rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (lavozimiga ko‘ra) |
| 22. | **PF-154-son, 2-ilova, 8-bandi.**<br>Ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari bilan birga ularning ishlab chiqilishi va idoralararo kelishuvi, shuningdek, muhokamasi o‘tkaziladigan elektron tizimlardagi (portal, platforma) havolasi haqidagi ma’lumotlar (loyihaning pasport ma’lumotlari) e’lon qilish. | Qo‘mita tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari bilan birga ularning ishlab chiqilishi va idoralararo kelishuvi, shuningdek, muhokamasi o‘tkaziladigan elektron tizimlardagi (portal, platforma) havolasi haqidagi ma’lumotlar (loyihaning pasport ma’lumotlari) e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | Markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 23. | **PF-154-son, 2-ilova, 13-bandi.** Real vaqt rejimida murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqida umumlashtirilgan ma’lumotlar (umumiy ko‘rib chiqilgan, shundan qanoatlantirilgan, tushuntirish berilgan, rad qilingan, taalluqliligi bo‘yicha yuborilgan, anonim deb topilgan va ko‘rib chiqilayotgan murojaatlar) e’lon qilish. | Qo‘mita tomonidan real vaqt rejimida murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqida umumlashtirilgan ma’lumotlar (umumiy ko‘rib chiqilgan, shundan qanoatlantirilgan, tushuntirish berilgan, rad qilingan, taalluqliligi bo‘yicha yuborilgan, anonim deb topilgan va ko‘rib chiqilayotgan murojaatlar) e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | K.Karabayev, “Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi” DUK |
| 24. | **PF-154-son, 2-ilova, 14-bandi.** Internet tarmog‘idagi o‘ntadan kam bo‘lmagan veb-sayt va O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga havolalar joylashtirish. | Qo‘mita tomonidan internet tarmog‘idagi o‘ntadan kam bo‘lmagan veb-sayt va O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga havolalar joylashtirish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | “Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi” DUK |
| 25. | **PF-154-son, 2-ilova, 20-bandi.** O‘z faoliyatiga tegishli masalalarni muhokama qilish maqsadida jamoatchilik fikrini o‘rganish vositalari (onlayn-so‘rovlar, bloglar, forumlar, onlayn-chat) joriy etilib, ularning natijalari to‘g‘risida hisobotlar e’lon qilish. | Qo‘mita tomonidan o‘z faoliyatiga tegishli masalalarni muhokama qilish maqsadida jamoatchilik fikrini o‘rganish vositalarini (onlayn-so‘rovlar, bloglar, forumlar, onlayn-chat) joriy etib, ularning natijalari to‘g‘risida hisobotlar e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | O.Usmonov |
| 26. | **PF-154-son, 3-ilova, 15-bandi.** Har yili ochiqlik sohasidagi o‘z faoliyatini takomillashtirish yoki | Qo‘mita tomonidan ochiqlik sohasidagi o‘z faoliyatini takomillashtirish yoki ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha 3 tadan | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Har chorakda | Markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| | ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha 3 tadan kam bo‘lmagan takliflar ishlab chiqib, ochiq e’lon qilish. | kam bo‘lmagan takliflar ishlab chiqib, ochiq e’lon qilish. | | | |
| 27. | **PF-154-son, 3-ilova, 17-bandi.** Ochiqlikni ta’minlash haqidagi qonunchilik talablari buzilganligi yuzasidan shikoyat qilish mexanizmlari (tartibi) ishlab chiqilib, bu haqdagi ma’lumotlarni ochiq e’lon qilish. | Qo‘mita tomonidan ochiqlikni ta’minlash haqidagi qonunchilik talablari buzilganligi yuzasidan shikoyat qilish mexanizmlari (tartibi) ishlab chiqilib, bu haqdagi ma’lumotlarni (ushbu toifadagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun mas’ul shaxs biriktirilganligi, alohida aloqa kanallari, shu jumladan qayta aloqaning interaktiv yo‘llari mavjudligi, murojaatni kollegial tartibda yoki rahbariyat darajasida ko‘rib chiqish tartibi o‘rnatilganligi) ochiq e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | O.Usmonov, “Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi” DUK |
| 28. | **PF-154-son, 3-ilova, 18-bandi.** Ochiqlik sohasidagi qonun va qonunosti hujjatlar, shu jumladan ichki idoraviy hujjatlarning boshqa tillardagi tarjimalarini (rus va ingliz) e’lon qilish | Qo‘mita tomonidan ochiqlik sohasidagi qonun va qonunosti hujjatlar, shu jumladan ichki idoraviy hujjatlarning boshqa tillardagi tarjimalarini (rus va ingliz) e’lon qilish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | G.Qodirova, O.Usmonov |

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirish resursi | Taqdim etish va yangilash muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 29. | **PF-154-son, 3-ilova, 21-band.** Har bir ochiq ma’lumotlar to‘plamining dolzarbligini baholash imkoniyati (to‘plamni avtomatik baholash, so‘rovlar yuborish, dolzarbligini oshirish yuzasidan takliflar qabul qilish, matn shaklida izoh qoldirish va to‘plam ko‘rib chiqilgan hamda ko‘chirib olgan foydalanuvchilar soni) tashkil etish. | Qo‘mita tomonidan har bir ochiq ma’lumotlar to‘plamining dolzarbligini baholash imkoniyati (to‘plamni avtomatik baholash, so‘rovlar yuborish, dolzarbligini oshirish yuzasidan takliflar qabul qilish, matn shaklida izoh qoldirish va to‘plam ko‘rib chiqilgan hamda ko‘chirib olgan foydalanuvchilar soni) tashkil etish. | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti | Doimiy ravishda | O.Usmonov, “Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi” DUK |